

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Abduraxmonov Umidjon Shoqosim o'g'li¹

Soliyeva Zulayxo Oybek qizi²

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi¹

Qo'qon davlat universiteti talabasi²

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4-sinf matematika fanini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kreativ fikrlashning mohiyati, uning o'quv jarayonidagi ahamiyati hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, matematika darslarida muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, yangicha yondashish va muammolarni ijodiy hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari ishlab chiqilgan. Maqolada keltirilgan texnologiyalar o'quvchilarda fanga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytirish, bilimlarni ongli egallash va ularni amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kreativ fikrlash, pedagogik texnologiyalar, matematika fani, ijodiy topshiriq, muammoli vaziyat, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, o'quv motivatsiyasi.

Kreativlik-shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinni foydalana olishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Matematikani o'qitishda o'quvchilarida masala va misollar yechish ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun kreativ faoliyatga tayyorlash va ijodkor shaxsni tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlariga aylantirish muhimdir. "Kreativ faoliyat" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, mazkur faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish masalalari falsafa, pedagogika, psixologiya kabi fanlarning o'rganish ob'ektlaridan biridir. O'quvchilarning kreativligi uning

tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi va zehn o‘tkirligini belgilab beradi.

Bugungi kunda uzluksiz ta‘lim jarayonida barcha fanlar kabi Matematika fanini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan “Matematika bo‘yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash”- dedi muhtaram prezidentimiz o‘z nutqlarida. Maktabdagi darslarni sifatli tashkil etish esa avvalambor pedagoglarimizni ijodkor bo‘lishga undaydi. Dars jarayonidagi faqat yodlashga qararilgan topshiriqlarning bo‘lishi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bugungi kundagi davr talabiga mos kreativ fikrlaydigan o‘quvchilarni yaratish dolzarb vazifamizdir. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o‘zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo‘lgan yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan holda darslarda amaliy qo‘llab borishlari zarurdir. Xususan, bunday natijaga o‘quvchi-yoshlarni kreativ fikrlash qobiliyatlarini paydo qiladigan, uni o‘stiradigan, hayotiy, kasbiy ahamiyati yuqori bo‘lgan fanlardan biri matematika fani orqali erishishimiz qulay va osonroqdir. Aynan shu fan yordamida o‘quvchilarni, boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish mumkin. Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta‘lim dasturlari yaratib, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash zarur.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida matematik bilimlarni shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning ratsional tafakkurini, balki ularning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishga ilmiy-metodik, texnologik va psixopedagogik yondashuvlar yangicha mazmun kasb etmoqda. Aynan matematika fani bo‘yicha 2022 yilda tasdiqlangan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlarida ta‘lim mazmunini kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida qayta tashkil etish belgilangan. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimlarni hayotiy vazifalarda qo‘llashga yo‘naltirilgan o‘qitish modelini joriy etishni talab etadi (Manba: DTS, 2022). Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlar o‘quvchilarda asosiy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu fanlar o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish maqsadida tashkil qilingan.

Hozirda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari doirasida 3–4-sinflarda matematika fanini o‘qitishga kompetentlikka asoslangan yondashuv joriy etilmoqda. Bu — o‘quvchida faqat nazariy bilimni emas, balki hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. 2022 yilda qayta ko‘rib chiqilgan Davlat ta‘lim standartiga ko‘ra, 3–4-sinf o‘quvchilarida matematik bilim va amallarni faol mulohaza, tahlil va refleksiya orqali egallash talab etiladi.

3–4-sinflarda matematika fanini o‘qitish boshlang‘ich ta‘limning muhim bosqichi hisoblanib, o‘quvchilarda umumiy tafakkur, mantiqiy yechim topish, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va amaliy hisoblash ko‘nikmalarini

shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu sinflarda ta‘lim mazmuni sezilarli darajada murakkablashadi: ko‘p raqamli sonlar, amallar tartibi, tenglamalar, geometrik figuralar, masalalarni tahlil qilish va yechish kabi mavzular o‘rgatiladi. Shu bois, mazkur bosqichdagi o‘qitish jarayoniga ilmiy, psixologik va metodik yondashuvning kompleks xarakterda tashkil etilishi talab etiladi. Matematika fani maktabda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun o‘qitiladigan majburiy fanlardan biridir. Bu fan o‘quvchilarda mantiqiy, tahliliy, tizimli, tanqidiy va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishi kerak bo‘ladi. Matematikani yuqori darajada bilish fikrlash qobiliyatini yuqori bo‘lishiga asos bo‘ladi. Yuqori darajadagi fikrlash - bu mavjud bilim va tajribalarni manipulyatsiya qilish va ulardan foydalanish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini o‘quv savollari orqali rivojlantirish uchun, bizning nuqtai nazarimizdan, nafaqat o‘quv matnlarini saviyali tushunishni ta‘minlaydigan shartlarni va kontseptualni boyitish orqali bu darajalarning o‘shishini hisobga olish kerak, o‘quvchilarning aks ettiruvchi va hissiy-baholash tajribasi, balki ularning yosh xususiyatlari, chunki bu ularning o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishga imkon beradi va natijada kreativ faollikning o‘shishiga hissa qo‘shadi.

4-sinf matematika darsliklari matnlarini tahlil qilish, shuningdek, o‘qituvchilarning o‘quv savollaridan foydalanish bo‘yicha amaliyoti o‘quv savollarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanishning ob‘ektiv ilmiy va uslubiy shartlari, shuningdek ulardan foydalanish usullari mavjudligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – C. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 11. – C. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – C. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 11. – C. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-

ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEKANIK MA‘NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIKLIK USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA‘LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA‘LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA‘LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.